

FOYDALANUVCHI YO'RIQNOMASI

LG Digital Signage

(SIGNAGE MONITORI)

Iltilmos, televizoringizdan foydalanishdan avval ushbu qo'llanmani diqqat bilan o'qib chiqing va undan keyinchalik foydalanish uchun saqlab qo'ying.

Android 8.0

MUNDARIJA

KIRISH 4

YON PANEL 5

- Orqaga tugmasi 5
- Bosh ekran tugmasi 5
- Eng oxirgi vazifalar..... 5
- Tezkor qayd..... 6
- Izohlash vositalari 6
- Ekrandan qisman skrinshot olish 7
- Ekranni muzlatish..... 7

KICHIK VOSITALAR..... 8

- Fokus 8
- [CountDown] 9
- Sekundomer..... 9
- Virtual sinf 10
- Ovoz beruvchi va hakam 11
- Javob beruvchi..... 14
- Tanlovchi 14
- Xabar 15
- [Manager]..... 15
- Sensorli menyu 16

NOTE (FAQAT TR3BF/G MODELI UCHUN) 17

NOTE (FAQAT TR3DJ MODELI UCHUN) 24

- [Palette]..... 34

FAYLLAR MENEJERI 42

- Turkumlar asosida ko'rish 43
- Manbalar ustida bajariladigan amallar ... 43
- Tartiblash menyusi 45
- Bulutdagi disk..... 47
- Chiqish 47

SOZLAMALAR 47

- [Wireless & networks] 47
- [Share] 47
- [Device]..... 48
- [Personal]..... 48
- [System]..... 48

CHROMIUM 48

E-POCHTA 48

LG CONNECTEDCARE (TR3BF/G MODELI)..... 48

[LG CONNECTEDCARE DMS] (TR3DJ MODELI)..... 49

[LG CREATEBOARD LAB] 50

[KEEPER] 51

[PIP] 52

SENSORLI MENYU 53**IDB 53****[LG CREATEBOARD
SHARE]..... 54****[BYTELLO SHARE / CAST]... 55****[SCREENSHARE PRO]..... 56**

- Dastur haqida..... 56
- O'rnatish 56
- Server haqida..... 59
- Mijoz qurilmalar haqida 67
- Kengaytirilgan ulanish kodi 78
- Sozlamalar menyusi..... 81

**MULTIMEDIA
XUSUSIYATLARI 86**

- Kino..... 86
- Surat 88

**BIR NECHTA MAHSULOTNI
BOSHQARISH 89**

- Ma'lumot uchun Buyruq ro'yxati..... 89
- O'tkazish/Qabul qilish protokoli..... 90

GPL, LGPL, MPL va ushbu mahsulotda mavjud bo'lgan boshqa ochiq kod litsenziyalari ostida manba kodini olish uchun <https://opensource.lge.com> saytiga tashrif buyuring.


Ochiq turdagi kodlarga qo'shimcha ravishda barcha tegishli litsenziya shartlari, kafolatlarining rad qilinishlari va mualliflik huquqlari to'g'risidagi bildirishnomalarni ham yuklab olish mumkin.

LG Electronics opensource@lge.com manziliga so'rov yuborilgan hollarda bunday yetkazib berish xarajatlarini (jumladan, media, jo'natish va qayta ishlash xarajatlari) qoplovchi to'lov evaziga CD-ROM orqali ham ochiq turdagi kodni yetkazib beradi.

Bu taklif mahsulotni yetkazib berilgandan so'ng uch yil ichida amal qiladi. Bu taklif ushbu ma'lumotni olgan har kim uchun amal qiladi.


KIRISH

- Foydalanuvchi qo'llanmasida tavsiflangan ba'zi bir xususiyatlar ayrim model va mamlakatlarda qo'llab-quvvatlanmasligi mumkin.
- OT – bu intellektual planshet kompyuterlari uchun ilovalar operatsion tizimidir. 1-1 rasmda ko'rsatilganidek, kompyuterni ochib Ishga tushirgich interfeysiga darhol kirishingiz mumkin.



1-1 rasm. Ishga tushirgich interfeysi


1-2 rasmda ko'rsatilganidek, ilovalarga kirish uchun quyi o'ng tomondagi  tugmasini bosish.



1-2 rasm. ILOVALAR

YON PANEL

- Uni ochish uchun har ikki tomondagi yon panelda  yoki  tugmasini bosing. Masalan, 2-1 rasmda o'ng tomondagi yon panelni qanday ochish ko'rsatilgan. Yon paneldagi funksiyalarga Orqaga tugmasi, Bosh ekran tugmasi, eng oxirgi vazifalar, tezkor qayd, izohlash vositalari, ekranni muzlatish va boshqa kichik vositalar kiradi.
- Sozlamalarda yon panel uchun yaroqli manzilni sozlash mumkin.



2-1 rasm. Yon panel tugmasi

Orqaga tugmasi

Eng oxirgi amal interfeysiga qaytish uchun  tugmasini bosing.

Bosh ekran tugmasi

Ish stoliga qaytish uchun  tugmasini bosing.

Eng oxirgi vazifalar


Eng oxiri bajarilgan vazifalar oynasini ochish uchun  tugmasini bosing. Bu oynada bitta tugmani bosib barcha jarayonlarni o'chirish yoki chap yoxud o'ngga ushlab tortish orqali alohida jarayonlarni o'chirish mumkin.

Tezkor qayd

Qaydlarni ochish uchun  tugmasini bosing. Obyektlarni yozish, o'chirish, tanlashingiz mumkin va hokazo. Tafsilotlar uchun "3 Qaydlar" bo'limi bilan tanishing.

Izohlash vositalari

Ilovalar, videolar, veb-saytlar, hujjatlar yoki rasmlarga izoh qo'shing.




2-5-1 rasm. Izohlash vositalari

Mundarija	Ta'rifi
[Select]	Annotatsiya funksiyasi o'rniga bosish funksiyasiga o'zgartiriladi.
[Pen]	Pero rejimiga kirish uchun bosing, pero rangi va qalinligini belgilash uchun yana bosing.
[Brush]	Cho'tka rejimiga kirish uchun bosing, cho'tka rangi va qalinligini belgilash uchun yana bosing.
[Clean]	Ekrandagi izohlarni tozalang.
[Save]	Ekrandagi joriy izohlar va kontentni xotiradagi tasvirga saqlang. Ular saqlanganidan so'ng dialog oynasi ko'rsatiladi. Dialog oynasini yopish uchun [Cancel] tugmasini bosing va [Finder]'ga o'tish uchun [Open] tugmasini bosing.
[Undo]	Avvalgi bosqichga qaytadi.
[Redo]	Bosqichni tiklaydi.
[Finder]	Faylni ko'rish uchun [Finder] ilovani oching.
[Insert]	Izoh kiritilgan ekranni [Note] ilovasiga qo'shing.
[Share]	QR kod orqali ekranni mobil telefonda ko'ring.
[Cloud]	Bulut hisobingizdan foydalanib, bulutli xotirada ekranni ko'ring.
[Close]	Izohlarni rad eting va vositani yoping.

Ekrandan qisman skrinshot olish


Ekrandan qisman skrinshot olish vositalarini ochish uchun  tugmasini bosing. To'liq yoki qisman skrinshot olish mumkin.



- To'liq ekran: Screenshot olish maydonni to'liq ekranga kengaytirish uchun  tugmasini bosing.
- Saqlash: Joriy skrinshot olingan maydonni saqlash uchun  tugmasini bosing.
- Qaydga qo'shish: Qayd ilovasini ishga tushirish uchun  tugmasini bosing. Screenshot olingan maydon Qaydga qo'shiladi.
- E-pochta orqali yuborish: E-pochta ilovasini ishga tushirish uchun  tugmasini bosing. Screenshot olingan maydon e-pochtaga biriktiriladi.
- Chiqish: Qisman skrinshot olishdan chiqish uchun  tugmasini bosing.

Ekkranni muzlatish

Ekkranni muzlatish vositalari oynasini ochish uchun  tugmasini bosing. Ekkranni muzlatishingiz hamda ayni paytda joriy ekkranni kattalashtirish va kichraytirishingiz mumkin.



2-6-1 rasm. Ekkranni muzlatish vositalari


- Kattalashtirish: Joriy ekkranda kattalashtirish uchun  tugmasini bosing.
- Kichraytirish: Joriy ekkranda kichraytirish uchun  tugmasini bosing.
- Qaytarish: Ekkranni dastlabki o'lchamiga qaytarish uchun  tugmasini bosing.
- Chiqish: Ekkranni muzlatish oynasidan chiqish uchun  tugmasini bosing.

Kichik vositalar

Turli vositalarni tanlash, jumladan, fokus, taymer, sekundomer va virtual sinf vositalari oynasini ochish uchun  tugmasini bosing.


Fokus

- 2-7-1-1 rasmda ko'rsatilganidek, fokus vositasini ochish uchun  tugmasini bosing. Fokus vositasidan tinglovchilar diqqatini ekranda siz ajratib ko'rsatishni xohlagan sohaga qaratish uchun foydalanish mumkin
- Fokus bilan ajratib ko'rsatilgan joyni o'zgartirish uchun qora sohada uyoq-buyoqqa suring.



2-7-1-1 rasm. Fokus interfeysi


- [Settings] 2-7-1-2 rasmda ko'rsatilgan oynani ochish uchun  tugmasini bosing.
 - [Scale] Fokus diapazonini sozlash ucun slayderni suring. Fokus diapazonini ikki barmoq bilan ham sozlashingiz mumkin.
 - [Alpha] Fokus bilan ajratilgan joyning shaffoflik darajasini sozlash uchun slayderni suring.
- Fokusni bekor qilish. Fokusni olib tashlash uchun  tugmasini bosing.




2-7-1-2 rasm. Fokus interfeysi

[CountDown]

- 2-7-2-1 rasmda ko'rsatilganidek, taymer kichik vositasini ochish uchun  tugmasini bosing.
- 2-7-2-2 rasmda ko'rsatilganidek, taymer hisobini boshlash uchun [START] tugmasini bosing.
- Taymer hisobini pauzalash uchun [PAUSE] tugmasini bosing. Taymer hisobini dastlabki holatiga qaytarish uchun [RESET] tugmasini bosing.




2-7-2-1 rasm. Taymerning dastlabki holat interfeysi




2-7-2-2 rasm. Taymer interfeysi

Sekundomer

2-7-3-1 rasmda ko'rsatilganidek, sekundomer hisobini boshlash uchun  tugmasini bosing. Sekundomer, sekundomer hisobini to'xtatish, sekundomer hisobini davom ettirish va hisobni asliga qaytarish kabi funksiyalar mavjud. Narigi tomonini bossangiz, Sekundomer oynaning pastki qismiga suriladi.




2-7-3-1 rasm. Sekundomer



2-7-3-2 rasm. Sekundomer

Virtual sinf

- Sinfga  tugmasini bosib kiring. Talabalar sinfga kirish uchun QR kodni skanerlaganidan keyin o'qituvchi [ENTER THE CLASS] tugmasini bosadi.
- IFP bilan bitta mahalliy tarmoqqa (LAN) ulanganingizni tekshiring.




2-7-4-1 rasm. QR kod



2-7-4-2 rasm. Menyu paneli


Ovoz beruvchi va hakam

 yoki  tugmalarini bosib va o'qitish interfeysining pastki burchagida javob berish interfeysi chiqadi. Savol turini tanlash uchun [Single choice] yoki [Multiple choice] tugmalarini bosib.




2-7-4-1-1 rasm. Ovoz beruvchi

Javob berish: Savolga javob berish uchun [Begin] tugmasini bosib. Savolga javob bergan talabalarning ismlari moviy rang bilan belgilanadi.




2-7-4-1-1 rasm. Ovoz beruvchi

Javoblar statistikasi: Savollarga javob berishni yakunlash uchun [Finish] tugmasini bosib va javoblar statistikasi sahifasiga kirishingiz mumkin.




2-7-4-1-3 rasm. Jaoblar statistikasi

To'g'ri javob(lar)ni tanlang va aniqlik darajasini hisoblang.



2-7-4-1-4 rasm. Jaoblar statistikasi


Tushuntirish: O'qitish sahifasiga kirish uchun javoblar statistikasidagi [Explain] tugmasini bosing. Foydalanuvchilar javoblarni tekshirish mobaynida savolga berilgan tushuntirish bilan tanishishi mumkin.



2-7-4-1-5 rasm. [Explain]


Javob beruvchi

Javob beruvchi qismiga kirish uchun 🗨️ tugmasini bosing. Talabalar [OK] tugmasini bosib javob berishlari mumkin.



2-7-4-2-1 rasm. Javob beruvchi

Tanlovchi




2-7-4-2-1 rasm. Tanlovchi

Savolga javob beradigan talabalarni tanlash uchun 🗳️ tugmasini bosing.

Xabar


Xabar faollashtirilgach, talabalar mobil telefonda xabar haqidagi fikrlarini nashr qilishi mumkin. Xabar haqidagi fikrlar planshet kompyuterda real vaqt rejimida yangilanadi.



2-7-4-4-1 rasm. Xabar

[Manager]


QR kod oynasini ochish va talabalarning sinfga kirishini osonlashtirish uchun [Manager] tugmasini bosing.



2-7-4-5-1 rasm. [Manager]

Sensorli menyu


Sensorli menyuga kirish uchun  tugmasini bosing.



2-8-1 rasml. [General Setting]

NOTE (Faqat TR3BF/G modeli uchun)


3-1 rasmda ko'rsatilganidek, Qayd rejimiga kirish uchun  tugmasini bosing.



3-1 rasm. Qayd


Menyu

3-1-1 rasmda ko'rsatilganidek, menyuni ochish uchun  tugmasini bosing. Bu menyuda fonni almashtirish va foydalanuvchilar parametrlarini saqlash mumkin.




3-1-1 rasm. Boshlash menyusi

- [New] Yozuv taxtasi faylini yaratish uchun  tugmasini bosing.
- [Open] Faylni tanlash oynasini ochish uchun  tugmasini bosing. .enb yoki .iwb formatidagi mahalliy fayllarni ochishingiz mumkin.
- [Save] Joriy hujjatni ochilgan .enb formatidagi faylga saqlash uchun  tugmasini bosing.
- [Import] Dars davomida IMG, PDF, SVG formatidagi fayllarni yozuv taxtasiga import qilish uchun  tugmasini bosing.
- [Export] Dars davomida joriy yozuv taxtasini IMG, PDF, SVG yoki IWB formatida eksport qilish uchun  tugmasini bosing.




3-1-2 rasm. [Export]


- [Cloud Storage] Joriy faylni eksport qilish hamda Google Drive va OneDrive xizmatlariga yuklash uchun  tugmasini bosing.
- [Background] Joriy sahifaning to'q ko'k rangli odatiy fonini almashtirish uchun  tugmasini bosing. Sahifa fon rangini o'zingiz tanlagan rangga almashtirish uchun istalgan rangga bosing.
- [Brightness disabled] Yorqinlikni avtomatik sozlash funksiyasini faollashtirish uchun  tugmasini bosing. Bu funksiya odatda yoqilmagan bo'ladi.



3-1-3 rasm. Rangli fonlar



3-1-4 rasm. Teksturali fonlar




3-1-5 rasm. Maxsus fon

Chiqish

Asosiy oynaga qaytish uchun  yopish tugmasini bosing. Agar joriy hujjat saqlanmagan bo'lsa, saqlash oynasi ochiladi va unda foydalanuvchilar fayl nomini kiritishi hamda joriy hujjatni saqlashi mumkin; joriy hujjat saqlangan bo'lsa, uni qaytadan saqlash shart emas. Dasturdan bevosita chiqib, asosiy oynaga qaytishingiz mumkin.

Tanlash

- Sahifadagi obyektlarni tanlash uchun  tugmasini bosing. Biror shaklni chizish yoki interfeysdagi obyekttni bosish orqali, tanlangan obyekttni surish, kattalashtirish yoki kichraytirishingiz mumkin. 3-3-1 rasmga qarang.
- Qo'lda yozish va SmartPen funksiyalarini ajratish: Qayd dasturining vositalar panelidagi tanlash funksiyasidan foydalanganda, foydalanuvchilar vositalar panelini yozuv holatiga o'tkazmasdan turib bevosita Qayd dasturida SmartPen funksiyasidan foydalanishi mumkin.




3-3-1 rasm. Tanlash

- 1) Surish: Joriy obyekttni boshqa joyga olish uchun obyekttni aylana bilan belgilang va ushlab torting.
- 2) Kattalashtirish yoki kichraytirish.
 - a. Joriy obyekttni kattalashtirish yoki kichraytirish uchun obyekttni aylana bilan belgilang va ikkita nuqta yordamida boshqaring hamda joriy obyekt rangini qora, sariq, moviy yoki qizil rangga o'zgartiring.
 - b. Joriy sahifani kattalashtirish yoki kichraytirish uchun sahifani ikki nuqta yordamida boshqaring.

Pero

Pero sozlamalari oynasini ochish uchun  pero tugmasini bosing. Qo'lyozuv o'lchami va rangini sozlagach, surganingizda qo'lyozuv siz yozishni xohlagan joyda paydo bo'ladi.



3-4-1 rasm. Pero sozlamalari

- Pero: Jumladan, qalam va cho'tkalar. Odatda qalam tanlangan bo'ladi.
- Qo'lyozuv o'lchami: Qo'lyozuv o'lchamini o'zgartirish uchun tegishli slaydorni suring.
- Qo'lyozuv rangi: Qo'lyozuv rangini o'zgartirish uchun o'ng tomondagi ranglar diskidan kerakli rangni tanlang.

O'chirg'ich



O'chirg'ichni tanlash uchun  tugmasini bosing. O'chirishni xohlagan obyektningizni aylana bilan belgilang.

Tozalash

Butun ekranni tozalash uchun  tugmasini bosing.

Shakl

- Shakllar oynasini ochish uchun  shakllar tugmasini bosing.
- Mavjud 2D va 3D shakllarni tanlashingiz mumkin.




3-7-1 rasm. Shakllar oynasi

Rouming

Rouming rejimini tanlash uchun  tugmasini bosing. Bunda butun ekranni surish orqali almashtirishingiz mumkin

Rasm chizish taxtasi

3-8-1 rasmda ko'rsatilganidek, rasm chizish taxtasini ochish uchun  tugmasini bosing.



3-8-1 rasm. Rasm chizish taxtasi interfeysi

- Pero: Odatda qalam tanlanadi, jumladan, qalam, yozuv cho'tkasi, cho'tkalar, o'chirg'ich mavjud.
- Palitra: Bo'yash uchun rangni tanlang va aylana shaklidagi palitraga bosing.
- Rang tanlagich: Rang tanlagichni faollashtirish uchun  tugmasini bosing va chizish taxtasi hududida yumaloq shakldagi rang tanlagich paydo bo'ladi. Rang tanlash uchun uni kerakli rang ustiga olib boring va bosing. Bunda pero shu tanlangan rangda yozadi.
- Rang diski: Foydalanuvchilar rang diski rangini o'zgartirish orqali joriy rangni o'zgartirishi mumkin.

Bekor qilish

Avval bajarilgan amalni bekor qilish uchun  bekor qilish tugmasini bosing.

Sahifa qo'shish

Yangi sahifa qo'shish uchun  tugmasini bosing.

Avvalgi sahifa

Avvalgi sahifaga qaytish uchun  tugmasini bosing. Agar joriy sahifa birinchi sahifa bo'lsa, bu tugma bosilmaydi.


Sahifalarga o'tish

Sahifalar eskizlarini yuklash uchun  tugmasini bosing. Kerakli sahifani ochish uchun eskizni bevosita bosishingiz ham mumkin.

Keyingi sahifa


Agar joriy sahifa oxirgi sahifa bo'lmasa, keyingi sahifani ochish uchun  tugmasini bosing.

[Note] ilovasini ochish uchun tugmasini bosing.



[Pen]


[Note] ilovasi foydalanuvchilarga tanlash uchun ranglar va pero uslublarining keng assortimentini taklif etadi. Ikkita pero funksiyasi ikkita rangni belgilash va [Note] ilovasida yozuvdan foydalanish imkonini beradi.

**DIQQAT**

- Ikkita peroni ishlatganda pero va ekran o'rtasidagi aloqa burchagiga qarab, turli ranglar paydo bo'lishi mumkin.


[Shape]

Note ilovasi keng maxsus shakllar, jumladan, ikki o'lchovli tekislikdagi shakllar va uch o'lchovli geometrik shakllarga ega, bular shakllarni o'quvchilarga osonlik bilan ko'rsatish uchun o'qituvchilarga qulaylik beradi.



[Ruler]

Note ilovasining chizg'ich vositasi o'qituvchilar haqiqiy chizg'ichdan foydalanishiga ehtiyoj qoldirmaydi va [Note] ilovasida o'qituvchiga yordam berishi mumkin.




[Sticky Notes]

[Note] ilovasidagi [Sticky Notes] vositasi real hayotdagi holatlarga o'xshatilgan, foydalanuvchilar ko'rishi uchun kanvasga muhim ma'lumotlarni qadash va aqliy hujum vositasi sifatida ham ishlatilishi mumkin.




Peroning kengaytirish funksiyasi

Qo'lyozmani tanlagandan keyin qo'lyozma yaxshilangan shrift sifatida avtomatik tanilishi mumkin va qo'lyozmani qidirish va uni aks ettirish mumkin.




Tasvirni kattalashtirish funksiyasi

Tasvirni tanlagandan keyin tasvir vektor tasvirga o'zgartirilishi va uni akslantirish mumkin.




Maxsus vositalar paneli

[Note] to'liq ekranda bo'lganida vositalar panelida qaysi vositalar ko'rsatilishi va qaysilar [More] menyusida ichki menyuga berkitilishini tanlashingiz mumkin.




Bir nechta formatlarda fayllarni import va eksport qilish

Note ilovasi bir nechta fayl formatlarini import qilish va fayllarni bir nechta formatlarga eksport qilishni qo'llab-quvvatlaydi.




Fayllarni saqlash uchun bir nechta usullar

Fayllarni lokal tizim va U diskka saqlash bilan bir qatorda [Note] ilovasi fayllarni saqlash yoki ularni elektron pochtaga yuborish uchun fayllarni mobil telefon yordamida skanerlashni qo'llab-quvvatlaydi.




[Palette]

[Palette] oynasini ochish uchun  tugmasini bosing.




[Menu]

[Menu] oynasini ochish uchun  tugmasini bosing.



Menyu-saqlash

[Menu] menyusida  Save tugmasini bosing, so'ng saqlashni istagan yo'lakni tanlang. So'ng fayl nomini quyidagicha sozlash mumkin.



Endi palitra ishlarini lokal xotiraga saqlash uchun [OK] tugmasini bosishingiz mumkin.

Menyu-import

Suratni [Palette] ilovasiga import qilishni tanlash uchun menyu oynasida  tugmasini bosing. Bu surat joriy sahifa uchun fon sifatida ishlatilishi mumkin, masalan.



Menyu-ulashish

[Menu] menyusida  tugmasini bosish QR kodni shakllantiradi, bu palitrangizni boshqalar bilan ulashishi mumkin.



Menyu-chiqish

 Exit tugmasini bosish [Palette] ilovasidan chiqaradi. Ehtiyot bo'ling, saqlamasangiz, joriy ishlar yo'qolib qoladi.

[Clear]

Joriy sahifadagi barcha kontentlarni tozalash uchun  tugmasini bosing.

[Undo]

Oxirgi bosqichga qaytish uchun  tugmasini bosing.


[Redo]

Bosqichni tiklash uchun  tugmasini bosing.


Perolar




Pero yurishi slayderi



[Palette]




[Color Box] katagida mavjud bo'lmagan rangni sozlash uchun palitradan foydalanishingiz mumkin. 1-bosqich, [Color Box] katagida rangni tanlang. Masalan,




2-bosqich, [Palette] ilovasidagi roligni soat mili bo'ylab torting, bu xuddi bunday bo'lsin.




1 va 2-bosqichni takrorlang, [Color Box] katagida mavjud bo'lmagan rangni olishingiz mumkin, masalan,



Rang tanlagich




Vositalar panelini berkitish yoki ko'rsatish




[Sample]

Ish maydonida rangni tanlash uchun  tugmasini bosing




To'ldirish

Pero rejimidan to'ldirish rejimiga o'tkazish uchun  tugmasini bosing. Bu rejimda [Color Box] katagida rangni tanlashingiz, so'ng yopiq sohani to'ldirishingiz mumkin, masalan,



FAYLLAR MENEJERI

4-1 rasmda ko'rsatilganidek, fayllar oynasini ochish uchun  tugmasini bosib. Unda tizimda saqlanayotgan hujjat, yozuv taxtasi yozuvi, video, rasm va audio kabi fayllarni ko'rish mumkin. Bundan tashqari, unda tashqi USB qurilmalar avtomatik aniqlanadi hamda fayllarni turkumlari asosida ko'rish, qidirish va boshqa amallarni bajarish mumkin.



4-1 rasm. Fayllarni ko'rish

Turkumlar asosida ko'rish


Foydalanuvchilar tizimda saqlanayotgan manbalarni ularning turkumlari, jumladan, hujjat, yozuv taxtasi yozuvi (yozuv taxtasi va tezkor skrinshot olish orqali saqlangan sahifalar), video, rasm va audio turkumlari asosida ko'rishi mumkin.

- [All]: Ichki xotiraga kirilganda, dastlab barcha manbalar ko'rsatiladi.
- [Doc]: PPT, Word, Excel, PDF hujjatlarni ko'rish uchun Hujjat tugmasini bosing.
- [Note]: Fayllar va yozuv taxtasidan saqlangan tezkor skrinshotlarni ko'rish uchun Qayd tugmasini bosing.
- [Picture]: Saqlangan rasmlarni ko'rish uchun Rasm tugmasini bosing. Bunda .jpg, .jpeg, .png, .bmp va .gif formatidagi fayllarni ko'rish mumkin.
- [Media]: Saqlangan videolarni kechish uchun Media menyusini bosing. Bunda .avi, .mp4, .vob, .mkv, .mov, .mpeg kabi formatlar qo'llab-quvvatlanadi.
- Qidirish: Qidirish uchun oynaning yuqori o'ng burchagidagi matn kirish maydonchasida kerakli manba nomini kiriting va 🔍 tugmasini bosing. Masalan, "so'z" kiritilsa, "so'z" deb nomlangan manbalarni topish mumkin.

Manbalar ustida bajariladigan amallar


Foydalanuvchilar tizimda saqlanayotgan manbalarni tahrirlashi, jumladan, yaratish, belgilash, hammasini belgilash, belgilashni bekor qilish, nusxalash, joylash, qirqib olish, o'chirish, qayta nomlash va boshqa amallarni bajarishi mumkin.

- Belgilash: Masalan, ☒ tugmasi bosilsa, u ✕ tugmasiga o'zgaradi va manbalar oynasining yuqori o'ng burchagida belgilash oynasi ochiladi. Keyin kerakli manbalarni tanlash mumkin.




4-2-1 rasm. Tanlash interfeysi

- Hammasini belgilash: Oynada  tugmasini bosib joriy jilddagi barcha manbalarni tanlashingiz mumkin.



4-2-2 rasm. Hammasini belgilash interfeysi

- Belgilashni bekor qilish: Hozir belgilangan mabalarning hammasini bekor qilish uchun  tugmasini bosing.
- Yaratish: Joriy jildda yangi jild yaratish uchun  tugmasini bosing.




4-2-3 rasm. Yangi jild

- Nusxalash: Manba tanlanganida, nusxalash tugmasi paydi bo'ladi. Belgilangan manbani nusxalash uchun  tugmasini bosing.
- Kesib olish: Manba tanlanganida, kesib olish tugmasi paydi bo'ladi. Belgilangan manbani kesib olish uchun  tugmasini bosing.
- O'chirish: Belgilangan manbani o'chirib tashlash uchun  tugmasini bosing.
- Joylash: Hozir biror manba nusxalangan yoki kesib olingan bo'lsa,  tugmasi chiqadi. Foydalanuvchilar nusxalangan/kesib olingan manbani tegishli manzilga joylashi mumkin. Joylash amalini faqat joriy jildda "barcha" manba manzillari ko'rsatilganida bajarish mumkin.
- Qayta nomlash: Belgilangan manbani qayta nomlash uchun  tugmasini bosing.
- Yana: "Yuborish" tugmasi ekranga chiqishi uchun  tugmasini bosing. Belgilangan faylni manzil jildga yuborishingiz mumkin.
- Biror manbaning ustiga bosing, shunda ushbu manba ustida bajariladigan amallar oynaning pastki qismida ko'rinadi. Joriy manbani o'chirish, nusxalash, kesib olish, joylash va qayta nomlash amallarini bajarishingiz mumkin.

Tartiblash menyusi


4-3-1 rasmda ko'rsatilganidek, menyuni ochish uchun  tartiblash tugmasini bosing. Manbalarni tartiblash, jumladan, nomi, turi, o'lchami va vaqti bo'yicha tartiblashingiz mumkin. Odatda manbalar nomi bo'yicha tartiblanadi.



4-3-1 rasm. Tartiblash menyusi


- [Name]: [Name] tanlansa, manbalar nomi bo'yicha tartiblab ko'rsatiladi.
- [Type]: [Type] tanlansa, manbalar turi bo'yicha tartiblab ko'rsatiladi.
- [Size]: [Size] tanlansa, manbalar hajmi bo'yicha tartiblab ko'rsatiladi.
- [Time]: [Time] tanlansa, manbalar vaqti bo'yicha tartiblab ko'rsatiladi.

- Hammasini belgilash: Oynada  tugmasini bosib joriy jilddagi barcha manbalarni tanlashingiz mumkin.



4-2-2 rasm. Hammasini tanlash interfeysi

- Belgilashni bekor qilish: Hozir belgilangan mabalarning hammasini bekor qilish uchun  tugmasini bosing.
- Yaratish: Joriy jildda yangi jild yaratish uchun  tugmasini bosing.



4-2-3 rasm. Yangi jild

Bulutdagi disk


 tugmasini bosish orqali resurslarni bulutga (Google Drive, One Drive) saqlash, ichki xotira va USB qurilmalar orasida nusxalash va resurslarni SHK bulut hisobiga sinxronlash mumkin.

Chiqish

Fayllar oynasini yopish va bosh ekranga qaytish uchun  tugmasini bosing.

SOZLAMALAR

6-1 rasmda ko'rsatilganidek, sozlamalarga kirish uchun  tugmasini bosing. Sozlamalardagi parametrlardan, [Wireless & networks], [Device] va [Personal] parametrlarini ochish uchun ularga bosing.



6-1 rasm. Sozlamalar menyusi

[Wireless & networks]

Tarmoq aloqasi va Bluetoothni yoqish va tarmoqni ko'rishni, jumladan, MAC manzil, IP manzil, tarmoq niqobi va shlyuzni sozlash mumkin.

* Wi-Fi Direct ishlamaydi.

[Share]

Uni Crestron funksiyasidan foydalanish uchun sozlash mumkin.

[Device]

Display: fon rasmi va piksel siljishini sozlash.

[Personal]

Qo'llab-quvvatlanadigan funksiyalar modeliga qarab farq qilishi mumkin.

- Xavfsizlik: Siz ishonch bildirgan barcha CA sertifikatlari USB qulfini sozlash, xavfsizlik rejimini sozlash, xavfsizlik parolini o'zgartirish
 - Xavfsizlik paroli sozlangandan keyin himoyalangan elementlarga kirish uchun uni kiritish kerak. (Odatiy: 000000)
- Til va matn kiritish: Til va matn kiritish sozlamalari
- Matn kiritish sozlamalari: Har bir tashqi kirishga yorliqlarni sozlash
- Hisob: Foydalanuvchi hisoblarini (emaillar) qo'shing va ma'lumotlarni sinxronlashni sozlang
- YOQISH/O'CHIRISH sozlamalari: YOQISH holatiga sozlash, Kutish rejimi sozlamasiga kirish, Avtomatik o'chishni sozlash, Signal bo'lmaganda avtomatik o'chishga sozlash, DPM sozlamalari, LANda uyg'otish sozlamalari, Bildirishnomalar displeyi sozlamalari, Uyqu taymeri sozlamalari
- Boshqa sozlamalar: Suriluvchi vositalar paneli va suzish paneli sozlamalari, tizimni birlashtirish kanali sozlamalari, yozish sozlamalari, Boshqaruv kodini tanlash (LG protokoli) sozlamalari

[System]

Sana va vaqtni sozlash hamda qurilma haqida ma'lumot.

CHROMIUM

Tarmoq aloqasi mavjudligida, veb-sahifalarni ochish uchun  tugmasini bosning va veb-sayt manzilini kiriting.

E-POCHTA

Internetga to'g'ri ulanganidan keyin e-pochtani sozlash uchun  tugmasini bosning.

LG ConnectedCare (TR3BF/G modeli)

Tarmoqqa muvaffaqiyatli ulangandan keyin hisobni ro'yxatdan o'tkazish va LG ConnectedCare serveriga ulanish uchun  tugmasini bosning.

! ESLATMA

- Alohida [LG ConnectedCare] ilova qo'llanmasiga qarang.

[LG ConnectedCare DMS] (TR3DJ modeli)

[LG ConnectedCare DMS] ilovasini ochish uchun  tugmasini bosing.

Nosozlik tashxisi va prognozlash xizmatiga [LG ConnectedCare DMS] (nosozlik tashxisi) yechimini o'rnatish orqali kirish mumkin.

Qanday o'rnatiladi

[LG ConnectedCare DMS] yechimini o'rnatish.

- 1 [Enter Account Number]: [LG ConnectedCare DMS] yechimini o'rnatish uchun 6 xonali hisob raqamini kiriting.

Hisob raqami: Bu [LG ConnectedCare DMS] yechimini ro'yxatdan o'tkazishda tayinlangan raqam. Hisob raqamini kiritganingizda, siz tegishli hisob nomini olasiz.

- 2 [Confirm Account Number]: Hisob raqamini va tegishli hisob nomini ko'rsatadi va hisob raqamining haqiqiylikini tekshiradi.

Agar hisob raqami ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, tegishli hisob nomi ko'rsatiladi, shundan so'ng siz [LG ConnectedCare DMS] yechimini o'rnatishni davom ettirishingiz mumkin.

Agar hisob raqami ro'yxatdan o'tmagan bo'lsa, hisob nomi Noma'lum sifatida ko'rsatiladi, bu holda siz o'rnatishni davom ettira olmaysiz.

[On] / [Off]

[LG ConnectedCare DMS] yechimini yoqing/o'chiring.

[Account]

Hozirda ulangan foydalanuvchining hisob raqami va ismini ko'rsatadi.

[Version]

[LG ConnectedCare DMS] yechimining versiyasini ko'rsatadi.


[Server Status]

To'plam va server o'rtasidagi ulanish holatini ko'rsatadi.

Mundarija	Ta'rifi
[Connected]	To'plam va server birlashtirilganligini bildiradi.
[Not Connected]	To'plam va server birlashtirilmaganligini bildiradi.
[Waiting for Approval]	Serverdan javob kutish holatini ko'rsatadi.
[Rejected]	Server integratsiyani rad etganini bildiradi.

[Reset]

Sozlangan [LG ConnectedCare DMS] ma'lumotlarini birlamchi holatiga qaytaradi.



! ESLATMA

- Alohida [LG ConnectedCare DMS] ilova qo'llanmasiga qarang.

[LG CreateBoard Lab]

[LG CreateBoard Lab] ilovasini ochish uchun  tugmasini bosing.


[Note] ilovasini va boshqa yozish vositasini taqdim etadi. Qo'shimcha funksiyalar ilovaning kelgusi yangilanishlari orqali taqdim etiladi.

! ESLATMA


- Alohida [LG CreateBoard Lab] ilova qo'llanmasiga qarang.


[KEEPER]

- 8-1 rasmda ko'rsatilganidek, [Keeper] oynasini ochish uchun  tugmasini bosing. Planshet kompyuterda keraksiz ma'lumotlarni o'chirib tashlash va apparat qismi tekshiruvini amalga oshirishingiz mumkin.




8-1 rasm. [Keeper]

- [One Key Optimize]: Xotirani optimizatsiya qilish, diskdagi keraksiz ma'lumotlarni o'chirib tashlash va apparat qismini tekshirish amallarini  tugmasini bosib tezkor bajaring.
- [Memory Clean]: Xotirani optimizatsiya qilish uchun  tugmasini bosing.



8-2 rasm. [Memory Clean]

- [Garbage Clean]: Diskdagi keraksiz ma'lumotlarni o'chirib tashlash uchun  tugmasini bosing.




8-2 rasm. Keraksiz ma'lumotlarni o'chirish

- Versiya ma'lumoti: Kompyuter tizimi haqidagi ma'lumotni bilish uchun  tugmasini bosing.
- Chiqish: [Keeper] oynasini yopish va asosiy oynaga qaytish uchun  tugmasini bosing.

[PIP]


Qo'llab-quvvatlanadigan funksiyalar modeliga qarab farq qilishi mumkin.

- PIP ilovasini ishga tushirish uchun  tugmasini bosing. Ikki lamchi ekranning tashqi kiritishi, ekran o'lchami va boshqalarni sozlash mumkin.
- ESLATMA: Tashqi kirish signalining aniqligi qarab, ikki lamchi ekranning tasvir sifati yomonlashishi mumkin.



SENSORLI MENYU

Sensorli menyuga kirish uchun  tugmasini bosib yoki barmoq bilan ekran pastidan tepaga suring.



9-1 rasm. [General Setting]

- ShK: Kompyuter kirishini tanlang.
- Android: Android kirishini tanlang.
- HDMI: HDMI kirishini tanlang.
- VGA: VGA kirishini tanlang.

* Signal kirishini almashtirish bir necha soniya vaqt olishi mumkin.


IDB

Qo'llab-quvvatlanadigan funksiyalar modeliga qarab farq qilishi mumkin.

 tugmasini bosish orqali IDB yordamida qo'lyozma yoki boshqa funksiyalardan foydalanish mumkin.

[LG CreateBoard Share]

Bu vositalar uzluksiz ekran ulashuvi va hamkorlikni qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan.



Mundarija	Ta'rif
Ekran translatsiyasi	Translatsiyani boshlasangiz, qurilma ekranni ulashadigan asosiy qurilmaga aylanadi. Translatsiyaga qo'shilsangiz, qurilma ikkilamchi qurilmaga aylanadi va asosiy qurilma ekrani ulashiladi.
Bir nechta qurilmani akslantirishni dastaklash	Buni faollashtirsangiz, 6 tagacha qurilma ulanadi va akslantiriladi.
Mahsulot foydalanuvchisining tajriba rejasi	Mahsulotlar va xizmatlarni takomillashtirish uchun umumiy ma'lumotlarni to'playdi.
Jurnal yuborish	Muammo yuzaga kelganda u nosozlikni bartaraf etish uchun jurnallarni to'plashi mumkin.
Bu qurilmaning aniqlanishiga ruxsat berish	Bu parametr yoqilganda, foydalanuvchilar yuboruvchi qurilmadan serverni qidirishlari mumkin.
Ruxsat rejimi	Bu rejim yoqilganda, barcha qurilmalar uzatish uchun ruxsat talab qiladi.
Chromecast'ni qo'llab-quvvatlash	Bu parametr yoqilganda, foydalanuvchilar Chromecast yoqilgan qurilmalardan serverni qidirishlari mumkin.
Airplay qurilmani qo'llab-quvvatlash	Bu parametr yoqilganda, foydalanuvchilar Airplay yoqilgan qurilmalardan serverni qidirishlari mumkin.
Miracast qurilmani qo'llab-quvvatlash	Bu parametr yoqilganda, foydalanuvchilar Miracast yoqilgan qurilmalardan serverni qidirishlari mumkin.
Veb-sayt orqali ekranni ulashish	URL havolasiga kirish orqali ekranni ulashing. Hech qanday alohida ilova/dastur talab qilinmaydi.
Qurilma nomi	Barcha mijozlar aniqlay olishi uchun serverning qurilma nomini o'zgartiring.

Mundarija	Ta'rifi
Yuklanganda avtomatik ishga tushirish	Qurilma ishga tushganda server ilovasining avtomatik ishlashiga ruxsat bering.
Kodni yangilash tezligi	Foydalanuvchilar kodni eslab qolishlariga yo'l qo'ymaslik maqsadida ulanish kodini o'zgartirish uchun vaqt oralig'ini o'rnatib.
Qalqib chiquvchi oyna o'lchami	Yuqoridagi qalqib chiquvchi oyna o'lchamini Oddiy (belgisi ulanish kodi), Kichik (faqat belgi) yoki Kichraytirish (o'chirilgan) holatga o'rnatib.

[Bytello share / Cast]

